

O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZINING BADIY TALQINI

*Abdumitalova Xabiba Abdusaid qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
abdumitalovaxabiba124@gmail.com*

Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,

ilmiy rahbar, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasi dagi bitiklar" va "Dunyoning ishlari" asarlarini tahlil qilib, undagi dolzarb mavzularni yangicha ko'rinishda baholashga, shuningdek yozuvchi tomonidan yaratilgan Ona obrazi va uning sharq ayoli siyosini, mushtarak fazilatlarini mohirona tasvirlangani aks ettirilgan.

Kalit so'zlar. Mo'tabar ayol, asardagi ilohiy qahramon, ijodiy mahorati, universal ayol.

OTKİR HAŞİMOV'UN ESERLERİNDE ANNE İMAJININ SANATSAL YORUMU

*Abdumitalova Habiba Abdusaid kizi,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,

bilimsel danışman, Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni

Özet. Bu makaledede, ünlü Özbek yazar Otkir Hoşimov'un "Bir Defterin Kenarlarındaki Notlar" ve "Dünyanın Eserleri" adlı eserleri incelenmekte, bu eserlerdeki güncel konular yeni bir ışık altında değerlendirilmekte, ayrıca yazarın Anne ve Doğu kadını imgesini ve ortak özelliklerini ustalıkla tasvir edişi yansıtılmaktadır.

Anahtar kelimeler. Güçlü kadın, eserdeki ilahi kahraman, yaratıcı beceri, evrensel kadın.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В ТВОРЧЕСТВЕ ОКИРА ХАШИМОВА

*Абдумиталова Хабиба Абдусаид кизи,
Студентка Узбекско-Финского педагогического института
Имомкулова Гулчехра Норбобоевна,
научный руководитель, Узбекско-финского педагогического института*

Аннотация. В статье анализируются произведения известного узбекского писателя Откира Хошимова "Заметки на полях блокнота" и "Произведения о мире", по-новому оцениваются актуальные в них темы, а также отражается мастерское изображение писателем образа Матери и восточной женщины, а также их общих качеств.

Ключевые слова. Сильная женщина, божественная героиня в произведении, творческое мастерство, универсальная женщина.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN THE WORK OF OTKIR HASHIMOV

*Abdumitalova Khabiba Abdusaid kizi,
Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Imamkulova Gulchehra Norboboevna,
Scientific Director, teacher of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. This article analyzes the works of the famous Uzbek writer Otkir Hashimov "Notes on the margins of the notebook" and "Works of the world", evaluates the current topics in them in a new light, and also reflects the skillful depiction of the image of the Mother and her oriental female figure, common qualities created by the writer.

Keywords. A reliable woman, divine heroine in the work, creative skill, universal woman.

Qaysi millat borki "Ona" siy whole madh etmasa. Dunyoning qay burchagida bo'lmay, bir yurtdagi farzandini quchib o'tirgan onani boshqa yurtdagi onaning dilbandiga bo'lgan mehrini taqqoslay olmaysiz. Har ikkisi ham jonining bir parchasi bo'lgan farzandi uchun borini berishga tayyor. Ona shundayin fidokor, shundayin jonkuyar zot-ki u bizga na mansabimiz, na muomalamiz, na gunohlarimizga qarab munosabatda bo'ladi. Bir kun kelib eng ishongan do'stingiz yoki jondan aziz yoringiz sizdan ketishi mumkin ammo ona sizga hech qachon pand bermaydi, u doimgidek hokisor, mehribonligicha qolaveradi. Ko'plab manbalarda ham "Ona" siy whole ulug' zot sifatida tasvirlanadi hattoki butun bir davlat, millatni tasvirlashda ham e'tiborimizni qaratishimiz zarur bo'lgan inson bu onadir. Borliqdagi yaratilgan eng nafis, eng noyob, eng qimmatli tariflar ham validamiz uchundir. Vaholanki, har qaysi asarni tahlil qiladigan bo'lsak unda "Ona" obrazini topishimiz mumkin. Yozuvchi asar qahramonlariga ta'rif berar ekan "Ona" siy whole o'zgacha bir uslubda yondashadi. Bu obrazni gavdalantirayotganda har bir adib o'z onasini ko'z o'ngidan o'tkazadi. Shuning uchun ham bu obraz boshqa asar qahramonlaridan ustun va ajralib turuvchi obrazdir. Hattoki, ona so'zini eshitar ekanmiz har kishining ko'z o'ngida shubhasiz o'z onasi gavdalanadi. Asardagi bu obrazni kitobxonga yuksak mahorat bilan tasvirlab bera olish har qanday yozuvchining ham qo'lidan kelavermaydi, albatta. Buning uchun kishining qalbida o'z onasi uchun hech so'nmaydigan mehr-muhabbat shulasi nur sochib turishi lozim. Ana shunday iliq nur adiblarimiz qalamni charxlashga undaydi. Bu yo'sinda charxlangan qalamlardan, shubhasiz, tahsinga sazovor sanat asarlari yaraladi. Ana shunday qalam sohiblaridan biri "O'zbekiston xalqi yozuvchisi" faxriy unvoni, "Mehnat shahrati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari sohibi O'tkir Hoshimovdir. U 1941-yil 5-avgustda dunyoga kelgan bo'lib, bolalik yillarda urush tufayli bir qancha qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Shu qiyinchiliklar tufayli o'qish bilan birgalikda pul topish ilinjida ishlashga ham majbur bo'lgan. Keyinchalik "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri, "Sharq yulduzi" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishlagan. U 1962-yilda xalq orasiga "Po'lat chavandoz" nomli ilk kitobi bilan kirib kelgan. Bundan tashqari unga "Shamollar esaveradi", "Bahor qaytmaydi", "Odamlar nima derkin", "Qalbingga quloq sol" kabi qissalari shuhurat cho'qqisini egallash uchun pillapoya bo'ldi desak yangilishmagan bo'lamiz. Biz uni yana mohir tarjimon, romanvis, qissanavis, hikoyanavis sifatida ham yaxshigina tanib olganimiz. Uning har jabhada yetakchiligi, harakatchanligi har bir yosh avlod uchun o'rnak bo'la olishi shubhasizdir.

O'tkir Hoshimov ijodini "Ona" obrazisiz tasavvur etish mumkin emas. Bu obraz haqida gap ochar ekanmiz O'tkir Hoshimov ijodi birinchilardan bo'lib yodimizga tushadi. Chunki bu adibchalik hech kim bu obrazni mukammal tarzda ifodalay olgan emas. Aynan "Dunyoning ishlari" asari bunga munosib misol bo'la oladi. Bu asar haqida taniqli O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday tarif bergen :"Dunyoning ishlari" asarini qissa emas doston deb atashni istardim u qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onamizni o'ylab ketamiz. Shu oshiq , shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umrlik uzub bo'lmash qarzlarimizni aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi." Oltinga teng bu fikrlar insonni bir muddat o'yga cho'mdiradi, insonni biroz bo'lsa ham xulosa olishga undaydi.

Bu asarda keltirilgan "Gilam paypoq" "Oq oydin kechalar" "Tush" " Alla " "Oltin baldoq" "Rus bolaning onasi" " Iltijo" kabi hikoyalar insonni e'tiborsiz qoldirmaydi. Bunda haqiqiy jafokash Sharq ayoli gavdalantirilgan. Har bir hikoyada ona madh etiladi. Asar boshida keltirilgan "Oq oydin kechalar" hikoyasiga nazar solsak unda quyidagi kichik ma'noli qismni ko'rishimiz mumkin: "Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz meniki..."

- Mayli, o‘g‘lim. O‘sha yulduz seniki. Anavi to‘rtinchisi- meniki.
- Nega, oyi, to‘rtinchisi eng kichkina yulduz-ku!

- Shuning uchun ham meniki... To‘rtinchi yulduz-yetimcha yulduz. Ko‘rdingmi, yaxshi o‘smai qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak.”[6, 336]

Onaning kutilmagan bu javobi kishini biroz o‘yga toldiradi. Nahot, onalar shunday pok qalb egalari bo‘lishsa, nahot, hattoki jonsiz bir yulduzga ham rahm, mehr ko‘zlar bilan qarashsa, demak, bir jonsiz yulduz uchun shunchalik qayg‘urishsa unda. O‘z farzandlari uchun yuraklarida qanday mo‘jizaviy mehr yashiringan ekan. Yana bir asarga e’tiborimizni qaratsak: “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”. Bu asarni o‘qir ekansiz adibning aql-zakovatiga, ziyrakligiga tasanno aytmaslikka iloj topa olmaysiz. Masalan, “Hamma ona bir ona” qismiga nazar tashlasak: “Amerika bilan O‘zbekiston orasi o‘n besh ming chaqirim Avstraliya bilan Kanada orasi yigirma ming chaqirim. Ammo, Amerikalik senatorning xotini o‘z farzandini O‘zbekistonlik dehqonning xotinidan kamroq yaxshi ko‘rmaydi Avstraliyalik abrigen ayol o‘z farzandini Kanadalik millioner ayoldan ko‘proq yaxshi ko‘rmaydi.” Ushbu misralar mazmuni quyidagicha: ona mehri hamma joyda bir xil, ya’ni ona o‘z farzandini qayerda bo‘lmasin, qanday sharoitda yashamasin baribir chin yurakdan cheksiz muhabbat bilan sevadi. Matnda geografik masalalar orqali odamlar orasidagi katta farq ko‘rsatilgan. Shunga qaramay ona muhabbatni bu farqlarni yo‘q qiladi, u universal, har bir ona farzandini sevadi bu muhabbat, millat, davlat, boylik yoki irqqa bog‘liq emas. Qisqa qilib aytganda “ Hamma ona- bir ona. Ona sevgisi har yerdabir xil.”

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi bu xalq orasidagi oddiy bir ko‘rimsiz ayol emas balki millatning xalqning ichki, tashqi fazilatlarini, xalqning sabr-toqatini ko‘rsatib bera oluvchi timsoldir. Eng oliv va bebaivo tuyg‘u bu onaning bolasiga bo‘lgan samimiy va be’minnat mehr-muhabbatni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad S. Dunyoning ishlari qissasi haqida [elektron kitob] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dunyoning_ishlari.
2. Fayzullayeva M. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tkir-hoshimov-asarlarida-ona-va-ayol-obrazlari-talqini/viewer>.
3. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.T.:Yangi asr avlodi, 2015. 336-b.
4. Daftar hoshiyasidagibitiklar. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/132>.
5. O‘tkir H. Hayoti va ijodi. <https://tafakkur.net/otkir-hoshimov>. haqida.